

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi**

**Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti**

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

**5141600 – BTSTI yo'nalishi
3– kurs 3– guruh talabasi**

To'ychiyeva Tursunoyning

“Ona tili boshlang'ich sinflarida o'quv fani sifatida” mavzusidagi

REFERATI

Ilmiy rahbar

I. Ubaydullayev

Andijon – 2011

REJA

Kirish.

1.1. Yangi pedagogik texnologiyalarga qo`yilgan talablar.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek tilini o'rgatishning lingvistik asoslari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

O'zbekistonning mustaqillikka yuz tutishi mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy xayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish kerakligini taqazo etadi. Yurtboshimiz I.A.Karimovning: "Ona tilining buyuk aha myati shundaki, u ma'naviy belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi".... deb aytgan gaplari ma'naviy turmush tarzini o'zgartirishda xalqimiz uchun darsturlama bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda milliy mafkuraning yaratishda ta'lim-tarbiyaning bo'limi maktablar, litsey va kollejlarning ahamiyati kattadir. Maktab va litseylarda ta'lim tarbiya jarayonini shakllantirish, samarador usulari orqali o'quvchilarga singdirish O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunning asosiy yo'nalishidir. Unda o'qitishning ilg'or shakllari va yangi texnologiyalarini ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish" asosiy masalalardan biri ekani ta'kidlanadi. Fuqarolarimiz ozod va obod Vatanda erkin va farovon yashashlari uchun tafakkuri takomil bo'lmog'i shart.

Bunday maqsadni, asosan, ta'lim jarayonida amalga oshirish ayni muddao hisoblanadi.

Ta'lim berish yangi,samarador, takomilashgan usul va texnologiyalarni yaratish, uni tajribada sinash va shu jarayonida yanada mukammallashgan yo'nalishini xosil qilishdan iborat bo'lib mukammal dastur, takomilashgan darslik, zamonaviy usul va texnologiyalar ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishga tasir etadi.

Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shakilda yo'lga qo'yish malakasi, eng avvalo, ona tili ta'limga taluqlidir. Chunki har qanday fanning mohiyati ona tili orqali iroda qilinadi va ona tili orqali idrok etiladi. Keyingi yillarda til o'qitishda metodik jixatdan o'quvchilarni faollashtirish masalasi nazariy jixatdan jonlangan bo'lsa-da, uni amaliy qo'llash juda sekin bormoqda va bu masalani amalga oshirishga bag'ishlangan o'zbek tilidagi metodik adabiyotlar yetarlicha emas, buning uchun xar bir o'quvchi shu soxada yetarli darajada maetodik adabiyotlar bilan taminlangan bo'lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan bo'lib, o'qituvchining o'zi shu jixatdan yetarli darajada bilimga ega bo'lmog'i tildagi har bir xodisalarni, qonuniyatlarni tushuntirishda falsafiy jixatdan tayorlangan bo'lmog'i kerak.

Insonning tafakkuri, ilmiy salohiyati, qobilyati, ijtimoiy muhim sifat sanaladi. Kelajakda Vatanimiz obod va ozod, erkin farovon bo'lishi, iqtisodiy jixatdan baquvvat bo'lish ko'p jixatdan bugungi yoshlarining iqtidoriga,istedodiga chuqur tafakkurli, bilimdon va ma'naviyatli bo'lishiga bog'liq. Yosh avvlodning barkamol bo'lib yetishida ona tili ta'limining ahamiyati katta bo'lib, ona tili nafaqat bir hil fanlarni o'zlashtishda, balki umuman, jamiyatda insoning mavjudligiga, ularning o'zaro aloqaga kiritishda muloqatning shakilanishida ham ahamyatlidir.

Bugungi kunda ona tili darslari oldiga qo'ygan vazifalarining asosiysi yoshlarda o'z fikirlarini mantiqiy izchil, barcha imkoniyatlari gavdalangan holda ta'sirli ravishta yetkazib berishdan iboratdir.

Til o'qitishning metodik masalalariga aniqlik kiritsh, bu sohada umumta'lim, nazaryani amaliy bilan, shuningdek barcha boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish zamonaviy pedagogik tehnologiyalarini ta'limga joriy etish maktablarda ta'lim usularini ishlab chiqish hozirgi metodikamiz, pedagogikamizning dolzarb vazifalaridandir.

Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim sifatida yanada oshirish bo'yicha ulkan ishlar olib borilmoqda.Bunday islohatlar har bir fan oldiga katta ma'suliyat yuklatiladi.

Bu ma'suliyatli vazifani ado etish, ayniqsa, ona tili o'qituvchisi oldiga ulkan vazifalar qo'ymoqda.

Ushbu jarayonda psihologiya fani ham chetda qolmasligi kerak. Chunki til ta'limni to'g'ri va to'la amalga oshirish uchun o'quvchilar psihologiyasini puxta bilmoq lozim.

Tilshunoslik hamda ona tili o'qitish sohasida esa "har bir millat uchun til o'ziga hos tafakkur" deb ko'rsatadi. Til sohasi qanday o'qitish kerakligi xaqida tilshunoslarimiz SH.Alimova, T.Musayevlarning fikirlarini ham o'rinli deb bilamiz. Ular maktabda beriladigan grammatik bilim amaliy ko'nikmalr hosil qilish uchun ko'makchi bo'lishini kerakligini aytganlar. Haqiqatdan ham ona tildan beriladigan garamatik bilim tafakkur o'stirish hamda ravon

nutq uchun xizmat qilmog'i lozim. M.Mirzaqulovning "Grammatika o'qitishning ilmiy asoslari" haqiqatdan risolasi ona tili qanday o'qitish haqida ma'lumot beruvchi tadqiqotlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bugun grammatikadagi nazariy bilimni o'quvchiga qanday qilib o'rgatish masalasi to'la ijobiy hal etiladi. Xozirgi o'zini adabiy tilini o'qitishni, takidlagandek falsafiy asosda tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni davir talabi. Taqiqotlarning yana bir muhim jihati shuki, o'qitishda o'quvchilar faolyatini faolashtirishga, ilmiy texnologiyalarini qo'lashga zamin hozirlaydi va o'qitish tamoyllarini ko'rsatib beradi, shuningdek, tilshunoslik musobaqalarda ta'lim berishda integratsiya masalasini xal qilib beradi. Ta'limda mashg'ulotlar rang-barangligiga erishish, ma'naviy hosil qilish va shu yo'l bilan tafakkur o'stirish yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib berilgani bilan xarakterlidir.

1. Yangi pedagogik texnologiyalarga qo'yilgan talablar

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ayniqsa, intellektual rivojlanishda XXI – asr katta o'zgarishlarga boy davr bo'lmoqda. Ushbu jarayondagi mavjud muamolarni xal etishda bugun kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu o'z navbatida o'quv dars turlari va rejalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini tashkil etishda yangicha yondoshuvlar pedagogik texnologiyalar qo'lashni talab etmoqda. Pedagogik texnologiya –o'quv jarayonini muayyan shaklda loyixalashtirish. Zamonaviy pedagogik texnologik esa an'anaviy dars qurilishini zamonaviy interfaol usul, an'anaviy shaklda o'ziga xos qayta loyixalashtirish. Bu loyixa shuki taqoza etmog'I lozimki avvallari o'quvchi muallimdan bilimini tayyor holda olingan bo'lsa, endilikda mashg'ulotda qo'yilgan turli muammolar topshiriqlar bajarish mustaqil fikrlash, muloqat qilish, mantiqiy xulosa chiqarish orqali, boshqacha qilib aytganda muayyan darajada mehnat qilib bilim oladi. Shuningdek ko'nikma malakalar ham mantiqiy fikrni talab qilgan mashqlar, ta'limiy o'qinlar qiziqarli ijkodiy ishlar vositasida hosil bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalrni, aniqroq qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyani ta'limda tadbiq etishda, bir boladan, ko'pchilik o'quvchilar jiddiy e'tibor bergandan keyin muayyan darajada izlanib bormoqdalar, ikkinchi tomondan esa, aksariyat muamolarning mashg'ulatlarda turli noan'anaviy usullarni duch kelgan holda qo'lashlari natijasida mashg'ulotlardagi tadbiq izchilik, tizimlilikka putur etib o'quvchilar egalashi shart bo'lgan bilim to'la beriladi.

O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida joriy etishda quydagi jixatlarda etibor bersa, maqsadga muofiq bo'ladi:

- a) shaxs-o'quvchidagi mavjud imkoniyalar-diqqati barqarorlik, aqliy mushoxada qila olish, ijodiy izlana ollisha faolik darajasi, nutqi, malakasini xisobga olish:
- b) o'quv jarayonida muayyan algaritimni tuzib olishi (dars bosqichlarni uzviyligi, mashqlarni bir-birini to'ldiruvchi ketma-ketligi, ta'limiy vositalarning taxlili):
- c) o'quv jarayonida mohirlik bilan boshqarish:
- d) loyihani amalga oshirish jarayonida darsning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning qalb darajada amalga oshayotganligini nazorat qilib borish:
- e) darsda til imkoniyatlarni turli qo'chimcha vositalari tehnik turlari, musiqa, ertak, topishmoq, maqol, sher, rebus va xokazolardan unumli foydalanib borish:

Turli uslubiy maqola va qo'lanmalrda zamanaviy pedagogik texnologiyalarni qo'lashda o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari uchun ularga imkon yaratib berish, o'quvchi taqdim etgan fikrni muxokama qilish, mantiqiy muloxazalar qilib, tegishli xulosa –xukm chiqarish, o'z fikrlarni mustaqil himoya qilish faol munazaraga kirishishni ta'minlash kabi fikrlar bayon qilinib kelinmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi hamkorligida o'qitish texnologiyasi muomoli ta'lim tashkiliy o'yinlar o'tkazish guruh- guruh qilib o'qitish texnologiyalari manzaralari chizib berilmoqda. Lekin yuqoridagi texnologiyalarning barchasini ham boshlang'ich ta'limga tatbiq etib bo'lmaydi. Chunki kichik

yoshdagi maktab o'quvchisi ham murakkab tizmdagi ta'lim jarayonida ishtirok etish qobiliyatiga ega emas.

Zamonaviy pedagogik texnologiya shuni talab qiladiki, dars jarayonida, ta'lim-tarbiyada o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta'lim jarayonini subyekti bo'lishi kerak. O'qituvchi esa o'qitishdan o'qishni o'rgatishga, bilim berishdan bilimlarni o'quvchilar mustaqil egalashlariga qo'llanilishi zarur. O'qituvchini ehtiyoj tug'dirishdan muhit yaratishga va undan mas'uliyatni sezishga yo'llashi kerak.

Ma'lumki, xar bir dars uchun ta'limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, yani bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan uchyoqlama maqsadlar belgilab qo'yiladi. Mashg'ulotning tashkil qilish shakli unda qatnashuvchilarning psixologik, yosh xususiyatlariga, o'quv materiali hajmi va mazmuniga, ta'lim ta'lim usulari va bolalarning imkoniyat darajalariga qarab loyixalashtiriladi.

Yuqoridagi shema mohiyati shuki, ta'limda aniqroq qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyada ichki motivatsiya (o'quvchilar diqqatini tortish, ichki tuyg'ini xosil qilish, istak, zarurat, mas'uliyat va ehtiyoj shakllantirish) dan kelib chiqqan xolda darsni boshqarish lozim.

Necha o'n yillardan beri boshlang'ich ta'limda ham, umumiy o'rta ta'limda ham darsdagi asosiy bosqichlar (tashkiliy qism, o'tgan mavzu bo'yicha suhbat, yangi mavzu ustida ishlash, yangi bilimlarni mustahkamlash, uyga vazifa berish) an'anaviy tarzda olib boriladi. Keyingi yillarda bu bosqichlarning qa'tiy izchilikda bo'lishi, xar bir bosqichning o'ziga xos qa'tiy qolibga tushib qolishi ta'limning samaradorligiga putur yetkazib bordi, mashg'ulotlarning zerikarli, o'quvchilarning loqaytligiga sabab bo'ladi. Natijada sinf xonasidagi interfaollikning yo'qolishi o'quvchilarning mantiqiy fikrlaridagi ojizlik hatolari yuzaga keldiki, o'quvchilar unli undosh, jarangli-jarangsiz tovushlar farqini, gramatik tuchuncha mohiyatini, so'z turkumlari bilan gap bo'laklari tafakurini bilmaydigan xolatga kelishdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda qo'lashda shunga etibor berishimiz lozimki, o'quvchilarning mantiqiy, obrozi fikirlashga o'rgatish, ularni muntazam ravishda faolashtirib borish lozim. Yana shunga etibor e'tibor berish lozimki, zamonaviy texnologiyani takomillashtirishda dialektikaning o'ziga xos qonuniyatlari xamda o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga asoslanish talab etiladi.

O'qituvchi mashg'ulotni loyihalshda pedagogik texnologik tamoyilariga jiddiy rioya qilishi lozim. Jumladan,

- a) "aloqa"- o'quvchiga ahborat berib, undan ham axborot olish;
- b) axborot, qoyituvgan aloqa jarayoni va nazoratining birligi;
- c) xar bir o'quvchi uchun maqbul bo'lgan o'quv materialini tanlash tamoyilari o'qitilish samaradodligini belgilashi.

Shuningdek, o'qituvchida o'quvchi xar bir mashg'ulotda xuddi imtihondagidek xarakat qilishi, o'z harakat faoliyati natijasini vaqtida bilishi, shu bilan birga, o'quvching yutug'iga o'quvching munosabati masalalari ham zamonaviy pedagogik texnologiya qoidalari sifatida o'qituvchi diqqat markazida bo'lishi shart.

Har qanday ilg'or pedagogik texnologiya "o'qituvchi jarayon o'quvchi" munosabatida taashkil etiladi, yangi ta'limning bu jarayonida o'qituvchi ham, har bir o'quvchi ham faoliyat olib boradi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'zi izlagani, muamolar yechishni o'zi bajarishi, gurlarda do'stona muhitni yuzaga keltirishi, mantiqiy fikirlab, yangi qaror chiqarishi, fikirlarni asosi, erkin va ravon bayon etishi uchun shart-sharoit yaratadi, dars jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi, nazoratchisi, o'quvchining do'sti xamkori, yordamchisi sifatida faoliyat yuritadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini Davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etish, maktab ona tili o'qituvchilarning malakasini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida oshirishdan avval quydagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilarning malakasini oshirish kurs davomida egalashlari zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish
- maktab ona tili o'qituvchilari malakasini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida oshirish mazmuni va tartibini ishlab chiqish.

Yuqoridagilarni etiborga olgan holda quydagi ishlar amalga oshiriladi:

- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilarning pedagogik va metodik talab va ehtiyojlarni xisobga olgan holda o'quv mavzuviy reja tuzish va unga asosan dastur ishlab chiqish;
- dastur talablari asosida tegishli usul va vositalarni tanlash mashg'ulot ishlanmalarini tuzish;
- pedagogik jarayoni amalgam oshirish

Maktab ona tili o'qituvchilari malakasini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida oshirish qurilmalarini tashkil etish quidagi maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- maktab ona tili o'qituvchilarning kasbiy saviyasini uzluksiz ravishda o'stirish malakasini oshirish;
- pedagogik tafakkurini boyitish;
- ta'lim jarayonida ular tomonidan qo'llanishi zarur bo'ladigan zamonaviy va axborot texnologiyalari, metodik bilim ko'nikma va malakalarni shakillantirish;
- o'qitish jarayoniga ilg'or xalqaro pedagogik tajribalarni joriy etish va ularni o'z o'rnida qo'llab olish.
- Ta'lim oluvchilarning talab va ehtiyojlarini, o'qituvchilarning yosh xususiyati, qiziqishi, va qobiliyatini hisobga olgan holda ta'lim berishning metod, usul va vositalarini to'g'ri tanlash;
- Ta'lim jarayonini yaxshilashtirish tizim asosida boshqarish;

Maktab ona tili o'qituvchilarining malakasi ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida oshirish kurslarini tashkil etish quydagi vazifalarni o'z oldiga qo'ydi.

- o'qituvchilar malakasini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida oshirish jarayonini tashkil etish;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish;
- masofadan turib o'qitish usularidan foydalanish;
- o'quv-uslubiy manbalar bilan taminlash;
- kursga kelgan yoki taklif etilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida namunali dars tashkil eta oladigan o'qituvchilar tajribasini omalashtirish

Maktab ona tili o'qituvchilarining malakasi ilg'or pedagogik

texnologiyalar asosida oshirishni tashkil etish kurslarida tinglovchilarga ta'lim samaradorligiga erishish, ta'lim mazmunini boyitadi, maqsadni amalga oshirishning eng qisqa maqbul yo'lini usularini tanlashga tavsiya berishdan avval ularning o'zlarini jarayon ichiga olib kirib muammo yechimini topishga yo'l ko'rsatib o'quvchi holatiga tushirish lozim bo'ladi. Shundagina o'qituvchi o'quvchini yanada ko'proq tushunadi, uning tuyg'ularini his qila oladi.

Shu o'rinda kurslarda tinglovchilarni ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy ta'lim usularini tanlash va amalda qo'llay olish yuzasidan bir soatlik dars mashg'ulotini berishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzu: Ona tili darslarini ta'limning zamonaviy texnologiyalari asosida tashlik etish.

Ta'limiy maqsad: tinglovchilarga adabiyot zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim usularini tanlash va ularni amalga oshirish qo'llashni o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: o'zaro xurmat, do'stona munosabat, ijodkorona muhitni shakillantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: kasbiy mahoratini rivojlantirish pedagogik tafakkurini boyitish, nazariya va amaliyotini voqeylik asosida tashkil qilish ko'nikmalarini xosil qilish.

Jixozlash: flipchart qog'ozi, market, skort, qaychi, kley, kartochkalar.

Mashg'ulotning borishi:

1.Kirish – Tinglovchilar bilan salomlashadi, ularning kayfiyati so'raladi. Ayni daqiqada ular qanday holatda ekanligi kuzatiladi.

Ta'lim beruvchi o'zini tanishtiradi.

2.Mavzu elon qilinadi: ishtirokchilar mavzu muhokamasiga kirishdan avval 5 yoki 7 nafardan iborat guruhlariga ajratiladi.

3.Guruhlariga topshiriqlar beriladi:

1.Guruhingizni nomlari nima uchun shunday nomlanadingiz:

Izoh: bu birinchidan, tinglovchilar ijodkorligini namoyon qilsa, ikkinchidan, ta'lim jarayoni boshqaruvchining guruhlariga nomini aytib murojat qilishi ma'qul yo'l hisoblanadi.

2.Guruh ishi va taqdimot uchun vaqt beriladi.

3.Guruhga 15 daqiqa ichida filinchart qog'oziga yozilgan savollarga market yordamida javob yoziladi va 3 yoki 4 daqiqada guruhlar oldidagi javoblar qog'ozini navbatdagi guuh bilan soat millari yo'nalishlarida almashtirib turiladi.Savollar quydagicha bo'lishi mumkin.

1.Ona tili darslarida eng ko'p samara beradigan faol ta'lim usullarini sanang.

2.Qaysi usulni qaysi jarayonda qo'llasa bo'ladi.

3.Faol ta'lim usullarining avzalliklari nimalardan iborat?

4. Faol ta'lim usullarining kamchiliklari qanday?

Savollar echilishi lozim bo'lgan muammoga qarab o'zgarish mumkin

5.Vaqt bo'lgach trener jarayonini to'htatishi so'raydi. Bungacha har bir guruhning oldiga o'zlari birinchi bo'lib javob yozgan savolari aylanib keladi. Guruhdagi birinchi yetakchi chiqib o'z guruhi va guruhlari yozgan javoblarni o'qib, izoxlashga harakat qiladi.

5.Guruhlar ishi muhokama qilinadi. Munozarali vaziyat yuzaga kelsa, avvaldan tayinlashgan ekspet guruhi yoki treynerni o'zi to'g'ri va maqbul javobni tanlab uni ilmiy asoslangan holda, fikrini noto'g'ri tashkil qilgan ishtirokchilarning savolariga keskin rad etmay javob berishga harakat qiladi.

6.Ta'limiy muhokama o'tkaziladi. (muhokamada ta'lim oluvchilar ham, ta'lim beruvchi ham, yarim doira shaklida o'tirishda maqsadga muvofiqdir to'ladi).

Unga quydagicha savollar kiritish mumkin:

- Bu usul sizga tanishmi?
- Siz jarayonda qanday holatga tushundingiz?
- Zamonaviy ta'lim usullaridan xabardorligingizga amin bo'ldingizmi? Bundan kimning yordamiga ko'proq suyangingiz?
- Sizningcha, adabiyot darslarida samaradorlikka erishishning eng maqbul vositasi nima? (darslik, ko'rgazma, UTB va boshqalar) bu usulni o'quvchidan oldin o'zingizda q'o'lab ko'rishingiz shart deb o'ylaysizmi?
- Aynan shu usulni adabiyot darslaridagi qaysi mavzuni o'rganishda qo'lasa bo'ladi?
- Bu usul orqali o'quvchilarda qanday kamol toptirish mumkin deb o'ylasiz? qo'lashga tayorgarlik;
- Kutilmagan vaziyatlarni xisobaga olish;
- Guruhlar xamkorligini tashkil etish;
- O'zaro hurmatni to'g'ri yo'lga qo'yish;
- Muammoning yechimini topishga birgalikda harakat qilish;
- Vaqtini to'g'ri taqsimlash;

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek tilini o'rgatishning lingvistik asoslari.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat iqtisodlashtirilgan umumta'lim mutaxasislari faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi 173-sonli qarori qabul qilingach,mazkur ta'lim muassasalarida o'qitilmaydigan fanlarning mazmuni aniqlash ehtiyoji vujudga keladi. Boshlang'ich ta'lim berish o'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda muhim ahamyatga ega. Bu jihatdan ayniqsa, ona tili ta'limini alohida ahamyat kasb etadi. O'quv-bilim jarayoni samaradorligi asosan o'quv predmeti mazmunining ta'lim maqsadiga muvofiq holda tanlaganligiga bo'g'liq. Shuning uchun xam o'quvchilarga taqdim etiladigan o'quv yuklamasini ularning ehtiyoj va imkoniyatlariga mos tarzda belgilangash lozim. Ona tili ta'limning o'qituvchalarga taqdim mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishi ularda mulohaza yuritish,o'zgalar fikrini anglash, ijodiy salohiyatlarini namoyon qilish va faolashtirish, o'z fikrlarini o'g'zaki va yozma ravishta ravon bayon qila olishi, jamiyat azolari bilan erkin muloqatda bo'la olishi ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. O'quvchilarning o'z ijodiy salohiyatini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratish maqsadida quydagi usulardan foydalanishi mumkin suhbatlari,

munojara daqiqalari tashkilqilish, ijodiy ishlar yozdirish, ularni muloqat va hozirjavoblikka chorlovchi didaktiv o'yinlarni tashkil etish, topqirlikka (chorlovchi) undovchi savol-javoblar o'tkazish, so'zlarni sinonimlari bilan almashtirish, so'zliklar tuzdirish qay usulardan samarali foydalanish maqsadga muofiqdir. Shuningdek har bir o'quvchilining individual xususiyatlarini xisobga olgan xolda ularni mustaqil taqdiqotlik faoliyati ko'nikmalarini shakilantirish va rivojlantirish zarur. Ona tili ta'lim standarti ko'rsatkichlari bolani fikiray olish, ifodalaydigan fikrini anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchilikka rioya qilingan xolda bayon qila olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilangan. Chuqurlashtirilgan ona tili ta'lim jarayonida o'quvchining savodxonlik, yozma nutq belgilarini talaffuzni ifodalash ko'nikmalari nazariy ma'lumotlar va amaliy yo'naltirish mashg'ulotlar yordamida jadal rivojlanadi. O'quvchilarning notanish so'zlar va matnlarni to'liq holda idrok etish imkoniyatlarini kenglaytiradi. Sinfan sinfga o'tgan sari o'quvchiga taqdim etiladigan nazariy ma'lumotlar miqdori ko'paytirilib, o'zlashtirgan bilimlarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlashga ko'proq vaqt ajratiladi. Ularning mantlar mazmunini chuqurroq anglashlari uchun qulay pedagogik sharoyit yaratadi.

Fikrni yozma tarzda bayon etish asosini xosil qilish o'ta murakkab jarayon bo'lib guruhlashtirilagan ona tili ta'limini amalga oshirishda bunga alohida etibor qaratiladi. Chunki bugungi kunda xatto maktab bitiruvchilarning ham yozma nutqi talab darajasida emas. O'quvchilar o'z fikrlarni batafsil muayan mantiqiy uchlikda bayon etishda qiynaladilar. Ularda so'z zahirasi yetarlicha shakilanmagan. Buning uchun chuqurlashtirilagan ona tili ta'limi jarayonida quydagichga ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakilantirish shakilantirilishi va malakaga qo'llantirish kerak:

- fikrni mantiqiy izchilikda ifodalash:
- muayyan mavzu doirasida bosqichma-bosqich kengaytirilagan murakkab matnlar yaratish:
- muayyan mavzuni batafsil tafsialash:
- mavzuni tavsiflashda ona tilining ifoda imkoniyatlari va so'z boyliklaridan samarali faydalana olish:
- matn yaratishda uslubiy talablarga rioya qilish kabilar.

Boshlang'ich sinflarda guruhlashtirilagan ona tili ta'limi o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy holda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakilantirish va rivojlantishni o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarda qo'llash hamda ta'limning ikkinchi bosqichida o'qishni davom etirish uchun zaruriy tayorgarlik darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv materiyalari o'quvchilarni tevarak atrofdagi tabiat bilan tanishtirishda odam tuzilishi va tabiatdan va jamiyat hodisalari haqida boshlang'ich tasavvur xosil qilish, daslabki lingvistlik dunyoqarash kurtaklarini shaklantirish, ona tiliga muhabbat uyg'otish va fikr bayon qilishda uning imkoniyalarida unumli foydalanishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Chuqurlashgan ona tili ta'limning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga quidagicha talablar qo'yilishi mumkin:

- a) o'quvchilarning lingvistlik bilimlari holda nutqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan bilim burchlarining me'yorlashgan ko'rsatgichlari:
- b) lug'aviy birliklar va grammatik bilimlar vositasida o'quvchining mustaqil, tanqidiy, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni shakillantirishga xizmat qiladigan bilimlarni muayyan uchlikda me'yorlashgan ko'rsatgichlari :
- c) Turli ranglar vositasida ifodalangan ijtimoiy holda tasvirlashga imkon beradigan bilimlar va ommaviy ko'nikmalarining aniq izchilikda me'yorlashgan ko'rsatgichlari:
- d) O'quvchining ichki tuyg'ularini ifodalashi uchun imkon beradigan nutq birliklarining me'yorlashgan ko'rsatkichlari:

O'quvchilarning mustaqil , tanqidiy holda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirishda ona tilining ifoda imkoniyatlarini o'zlashtirish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bola o'z shakillanishi jarayonida atrof muhiddagi voqea hodisalarni u yoki bu mavzuga aloqador bo'ladi.

Bu aloqadorlik natijasi narsa buyum voqea-hodisalarning nomlari va ularning hususiyatlari bilimga intiladi.

O'quvchilar chuqurlashtirilgan ona tili ta'limi jarayonida lingvistik bilimlar va til vositalari bilan bir qatorda o'zbek xalqining ijtimoiy tajribasini ham o'zlashtirishi kerak shundagina ona tili jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlari kengaytiriladi. Chinki ona tili badiiy holda ilmiy matnlar yordamida o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari, so'z boyligi insho hamda punktuasion me'yoriylari tabiat hamda jamiyat hodisalari, kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar, odamlarning harakteri fazilat hamda xislatlari, ona tili ta'limi jarayonida milliy ahloqiy va nafasat tarbiyasini amalga oshirish zaruratini nazarga tutgan holda, o'quv materlarini to'plash maqsadga muofiqdir.

Chuqurlashtirilgan ona tili ta'limini mazmunli ham boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari doirasida belgilanadi. Shunga ko'ra guruhlashtirilgan ona tili ta'limining mazmunli kontsetrum to'laligicha tayinlangan xolda tarqaladi.

Bunga mavzular muayyan ketma-ketlik asosida o'quvchilarda dastlabki lingvistlik bilimlar va nutq madaniyati elemetlarini o'rgatishga qaratilishi lozim.

Shuningdek, mazkur ta'lim jarayoning maqsadi 2-4 sinf o'quvchilaring Savodxonligini rivojlanishini nazarda tutadi. Bu sinflarda ona tilidan chuqurlashtirilgan ta'lim berish natijasida belgilab qo'yilgan bilim, ko'nikma va malakalarini egalash uchun o'quv yuklamasining maksimal miqdori belgilanishi lozim. Bu talab o'quv topshiriqlarida ham o'z ifodasini topishi zarur xususan, bunda ta'lim mazmuni yaxlitlik, izchilik, tuzumlilik talablariga asoslangan holda tanlanadi.

2 – 4 sinf o'quvchilariga ona tilidan taqdim etilayotgan chuqurlashtirilgan ta'lim mazmunining tadbiriy baxolashuvi taminlanadi;

- Chuqurlashtirilgan ona tili ta'limining mazmuni boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari asosida belgilab beriladi.

- ona tili nazariy asoslari me'yorlari va ifoda imkoniyatlarini guruhlashtirilgan ta'limning daslabki bosqichlaridan boshlab o'zlashtirilishga erishish nazarda tutiladi.

Ona tili ta'limini belgilash asosiy e'tibor o'quvchilarning nazariy bilimlarini oshirish, ularda nutq madaniyatiga oid daslabki ko'nikmalar va lingvistlik tafakkurini xosil qilish, mustaqil, tanqidiy, ko'nikmalarini tarkib topishiga qaratiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limining mazmuni konstrezi tamoyiliga asoslangan holda quidagicha belgilanishi maqsadga muofiqdir:

Chuqurlashtirilgan ona tili ta'limining daslabki bosqichda o'quvchilarda moddiy borliq, atrof-muhit, tabiat va jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy soha, insonda turli his-tuyg'ularning nomini ifodalsh bilan bog'liq so'z, tushuncha, predmet, voqea-xodisalarning nomini ifodalovchi so'z va shularning manolari, ularning ma'nodosh, uyadoshlari yangi paydo bo'lgan holda eskirib qolgan, umumxalq ishlatadigan va bir necha ma'no ifodalaydigan turli so'zlar, ularning variantlarini o'rgatish asosida o'quvchilarning so'z boyligi va nutqini sinfdan-sinfga rivojlantirib borish, o'zbek tilining lug'at boyligini va undan foydalanishni fikri haqida ularda tasavvur qilishda ona tilimizning so'z boyligimizni o'quvchilarning nutqiga sindirish xal qilish ko'zdatutildi. Shulardek o'quv mavzulari lug'aviy bilimlarning tenglashda o'quvchilarning induvidual qiziqishlarning aloqasida xisobga olish maqsadiga muofiqlashdir masalani matematikaga kiradiganlar uchun hisob iqtisodaga qiziqadigan o'quvchilarni uchun iqtisodiy tehnikaga qiziqadiganlar uchun tehnikaga oid atamalar ishtirok etish. o'quvchilar topshiriqlarni ta'minlash maqsadida guruhlashtirishtirilgan ona- tili ta'lim mazmunida har bir o'quvchining induval hususiyatlarni hisobga olgan olgan holda ularda taqiqotchining faoliyati ko'nikmalarni shaklatirish va rivojlantirish uchun berilgan matndagi so'zlarning ma'nolarning aniqlash va lug'aviy tahlili ma'nodagi so'zlarni ajratish hamda ularning ma'nolarrining izohlash, so'zlarning o'zaro ma'nodoshlarning topib, sino'nim so'zlar qatorining xosil qilish, yangi so'zlarning paydo bo'lishi sabablarni asoslash, matnlarning o'zaro chegaralab ularni ishlarga ajratish turli mavzularda kichik ayonlar yozish kabi toshiriq shakllari taqdim etish maqsadga mufiqdir

Chuqurroq tekshirilga ona-tili ta'limi mazmunini keyingi qismi o'quvchining o'zaro egalagan grammatik bilimlar va so'z boyligi yordamida fikr va xis tuyg'ularni aniq to'g'ri ifoalab olishlari hamda o'zgalar ta'limidan ifodalangan fikr va tuyg'ularni to'g'ri aniqlashlarga erishish maqsadida ona-tilidagi grammatik vositalarni yorilshi qo'lanish doirasini oddiydan murakkabga ona-tili asosida tartiblikka erishgan holda o'rgati borish vazifasini hal qilish nazarda tutiladi.

Uchinchi qismi inson nutqida ifodalangan hissiyma'noning ta'sir kuching anglash ot zamon va yozma shakllarda fikr ifodalash jarayonida nuqtasini xuddi mana shu imkoniyatlardan foydalanishning maqsadida ona-tildagi ifoda vositalarning uslubiy moslanishning uslubiy imkoniyatlarni tajriba asosida o'quvchilarning nutqiga sindirishga yo'naltirishadi.

Chuqurlashtirilgan ona-tili ta'limning tartibiy qismi bo'lgan nutq o'stirish dastida esa ona-tili ta'limining mazmuniga o'zbek tiining statistik me'yorlari va Ularning asosiy belgilari statistik me'yorlarning funksiyalari tabiyati til vositalarning tanlash va qo'llash imkoniyatlari me'yorlari nutq uslublari tipolo'giyasi muomolarini o'zaro uzviy aloqadorlikda o'quvchilarga o'rgatishga alohida etibor qaratgan .

Chuqurlashtirilgan ona-tili ta'limining mazmunining ushbu bo'limida o'quvchilarga nutq uslubiy elementlarning maqsatga mofiqligi, stilistik qiymatini nominvistik va lingvistik me'zonlari orqali fahmlash ko'nikmalari va malakalari shakilantiriladi.funksional til me'yorlarini o'quvchilarning nutqiga singdirish o'z navbatida matnning aniq mantiqiy mazmuni anglash, uni shakilantirish, uyushtirish orqali yoritiladigan konumitkativ uslubining sotsiyalingvistik, psixalingvistik asoslaridan o'quvchilarning xabardor etish xam nazarda tutiladi.

Nutq o'stirish jarayonida so'zlarning semantik gramatik hamda funksional uslubiy birikuvchilari orasidagi aloqani, so'zning nutq tarkibidagi jonli faoliyatni o'quvchilarga o'rgatishga alohida e'tibor qaratiladi.

Chuqurlashtirilgan ona-tili ta'limining mazmunida o'quvchilarning aniq fikrlash taffakuri maqadga muofiq tarzda bayon qila olishga o'rgatib borish nazarda tutiladi.

Chuqurlashtirilgan ona-tili ta'limining jarayoni o'quvchilarning quvvat hofizasining rivjlantirish, o'z fikrlarini ona tilining keng imkoniyalaridan maqsadga muofiq tarzda foydalangan holda bayon qilishiga oid ko'nikma va malakalarni shakilantirish maqsadi ko'zda tutuladi huddi shu maqsadni amalga oshirish uchun o'quvchilarga bosqichma-bosqich boshlanishi nutq imkoniyatlarini o'rgatish, ularni turli shakl mazmuni va harakteridagi matnlarni yaratishga odatlantirish vazifasi ham ko'yilmoqda. Shu bilan birga bir qatorda ona tilidan chuqurlashtirilgan ta'lim berish jarayonida o'quvchilar jamiyat azolari bilan muloqatga tushishining lingvistik me'yorlari til va nutqning jamiyat hamda shaxs uchun ahamyati, tilga hurmat, uning boyligi, sofligi, va yozuv tarixi, til va yozuvning taraqqyot bosqichilari haqidagi eng muhim bilim va tushunchalar bilan qo'lanishlari kerak.

Ona tili darslarida muntazam tarzda sharxlab o'qish bir-birlarining ishlarini tekshirib, baxolash, o'zgalar fikri matn mazmunini anglash ko'nikmalarini tarkib topishi vazifalarini qo'shimcha maqsadga muofiqdir.

Xulosa

Zamonaviy ta'lim yo'nalishlarini o'z ichida aks ettirgan yana bir shakl – o'yinli texnologiyalardir. zyin bolalarning shaxsiy xulq – atvoriga tashqi kuzatuvchi, xarakterlantirivchi kuch sifatida ta'sir ko'rsatib, o'yin usullari yordamida oliyu borilgan mashg'ulotlar olalarga boshlang'ich ta'lim metodikasi fanini o'zlashtirish bilan birgalikda kasbiy mehnatning mazmunini ochib borishga rdam beradi.

O'yinning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatlarini sanab o'tish mumkin.

O'quvchilar yordamida muallif bilan birgalikda quyidagi o'yin tiplari ishlab chiqiladi:

- predmetli – tasviriy o'yinlar;
- borliq haqidagi tushunchalarni kengaytirishga mo'ljallangan o'yinlar;
- badiiy o'yinlar;
- ijodiy o'yinlar.

Tavsiya qilinayotgan o'yin texnologiyalarning yangiligi ularning badiiy – timsoli xususiyatga egaligi, unda grafikaviy faoliyatning integratsiyalashuvi, dars jarayonining emotsional mazmuniga eng bo'lish, ijodiy hamkorlik uchun zamin yaratish, o'zaro munosabatlar kabi omillarga asoslanganligidir.

Tajriba davomida bolalar bilan o'tkazilgan savol – javoblari natijalaring rzyhatlashga, talablar, yangiliklarga qirqish bilan qaraydilar va ularning samarodorligiga ishonadilar.

Pedagogik amaliyot jarayonida o'qituvchilar bilim mahorati namunalarini, faollik, ijobiy motivatsiya va bolalar bilan ishlashga layoqatli ekanlarini ko'rsatadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent “Sharq” 1998.
2. Karimov I. Barkamol avlod orzusi Toshkent, “Sharq” 1999.
3. G‘ulomov A. B. Qobilov. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.
4. To‘xliiev B, M. Shamsieva, T. Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006.
5. G‘ulomova X. va boshqalar. Ona tili darslari. Toshkent “O‘qituvchi” 2003.
6. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.
7. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi” 2004.
8. Qosimova K. A. Ne‘matova. 2 – sinfda ona tili darslari. Toshkent, “Cho‘lpon” 2004.
9. Xudoyberganova M. va boshqalar. 3 – sinfda ona tili darslari. Toshkent “O‘qituvchi” 2004.
10. Ona tili o‘qitish metodikasi (ma‘ruza matnlari) Tuzuvchi: Q. Yunusov. Andijon 2006.
11. Abdullaeva M. va boshqalar. Ona tili 1 – sinf uchun darslik. Toshkent “O‘qituvchi” 2000.
12. Abdullaeva Q. va boshqalar. Savod o‘rgatish metodikasi. Toshkent “O‘qituvchi” 1996.